

---

Paxta yig'im-terimida faol ishtirok etayotgan xotin-qizlar rag'batlantirildi  
"Halqaro qishloq ayollari kuni" munosabati bilan Qo'shtepa tumanida "Ayollar daftari"ning 5-bosqichiga kiritilgan va bugungi kunda paxta yig'im-terimida faol ishtirok etayotgan xotin-qizlari ishtirokida "Osiyo bahor fayzi" fermer xo'jaligi dala shiyponida madaniy-ma'naviy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda viloyat "Oqila ayollar harakati" rahbari Yu.Kadirova va "Oydin" gazeta muharriri X.Karimovalar ishtirok etdi.

Tushlik chog'i tashkil etilgan tadbirda opa-singillarimiz uchun konsert dasturi tashkil etildi. Shuningdek, ilg'or terimchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.















2024-10-22 16:28:21